

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOVA GULCHEHRA ABDUKARIMOVNA**

**OILA MA‘NAVIY MUHITI BARQARORLIGIDA OTA BURCHI VA  
MAS‘ULIYATI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract  
of the Doctor of Philosophy (PhD) on Philosophical Sciences**

**Karimova Gulchehra Abdukarimovna**

Oila ma'naviy muhiti barqarorligida ota burchi va mas'uliyati (ijtimoiy-falsafiy tahlil).....5

**Каримова Гулчехра Абдукаримовна**

Долг и ответственность отца в стабильности духовной среды семьи (социально-философский анализ).....24

**Karimova Gulchekhra Abdukarimovna**

The father's duty and responsibility in the stability of the spiritual environment of the family (socio-philosophical analysis).....46

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOVA GULCHEHRA ABDUKARIMOVNA**

**OILA MA‘NAVIY MUHITI BARQARORLIGIDA OTA BURCHI VA  
MAS‘ULIYATI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fal1154 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ik-falsafa.nuu.uz](http://www.ik-falsafa.nuu.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qaxxorova Matlyuba Mannofovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy taqrizchilar:**

**Muxtorov Azamat Muxtorovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Xuseynova Abira Amanovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy  
pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «09» iyun soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 1000174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz). O‘zbekiston Milliy universiteti Yoshlar ittifoqi binosi kichik zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (100-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «09» iyun kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**I.S.Saifnazarov**

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

**G.M.Shodimetova**

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, falsafa doktori (PhD), dotsent

**O‘.G‘.Tilavov**

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda oila va otalilik muammolari oila instituti, birinchi navbatda, otalar va bolalar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarning zaiflashishi bilan bog'liq bo'lgan inqiroz kuzatilmoqda. Bunda ota va bola munosabatidagi salbiy holatlar, oila ichidagi nizolar va tajovuzlarning kuchayishi, oilaviy tarbiya sifatining pasayishi hamda otalar mas'uliyatining susayishi bilan bog'liq muammolar ko'proq namoyon bo'lmoqda. Oilada bola tarbiyasida onaning o'rnini beqiyos, biroq, otani oilaning ustuni, chinakam va yengilmas qo'rg'oni sifatidagi rolini oshirish, oila qo'rg'onining poydevorini ota tarbiyasi bilan mustahkamlash, otaning oila tinchligi, osoyishtaligi, farovonligi va baxtiyor hayotidagi o'rnini, otalik burchi va majburiyatlari, farzandlar tarbiyasidagi mas'uliyati, ota va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqida ilmiy-falsafiy asoslangan ma'lumotlar va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning qator rivojlangan mamlakatlarida otalikni rivojlanish psixologiyasi, otalikning ijtimoiy-madaniy aspektlari, otalik va oila farovonligi, otalik va tarbiya masalalari, muammoli otalikni tadqiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda farzand tarbiyasining an'anaviy va zamonaviy usullari uyg'unligi ta'minlash, oilada ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda otaning rolini oshirish, tarbiya jarayonida otalarning ishtiroki hamda ota burchi va mas'uliyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. Shuni inobatga olgan holda bugungi kunda ota burchi va mas'uliyatini oshirishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, oilada otaning mavqeini oshirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, oila muhiti barqarorligini ta'minlashda otaning rolini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o'rganish zarurati mavjud.

Mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash, oila ma'naviy muhiti barqarorligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalish nafaqat oilalarning farovonligini ta'minlash, balki jamiyatning rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlash, barkamol avlodni tarbiyalash kabi muhim vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi globallashtirish zamonida oila institutini har tomonlama himoya qilish, qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish zarurati tobora kuchaymoqda"<sup>1</sup>. Zero, globallashtirish sharoitida oila institutiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga qarshi kurashish va yoshlarning ma'naviyatini mustahkamlashda oila ma'naviy muhiti barqarorligini ta'minlash hamda otalik maqomini oshirish muhimdir. Bu vazifalarni amalga oshirishda otaning oila va jamiyatdagi maqomini oshirishga xizmat qiladigan uzluksiz ma'naviy tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlari bilan bog'liq axloqiy mezon va ijtimoiy-huquqiy asoslarni falsafiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/20/family/> Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясига ўзгартириш киритиш ва ташкилий чора-тадбирларни amalga ошириш юзасидан Конституциявий комиссия аъзолари билан учрашдаги нутқи.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risidagi, 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 1-martdagi PF-81-son «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 7-martdagi PF-87-son «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2023-yil 25-dekabrda PF-208-son «Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari hamda 2020-yil 31-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 820-son «Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son «Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022 - yil 1 - martdagi PQ-146-son «Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori, 2023-yil 21-dekabrda PF-209-son «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Otalikning falsafiy tushunchasi erkaklik va ayollik tamoyillarining o‘zaro ta‘siri, individuallik erkinligiga asoslangan ularning uyg‘unligi kontekstida o‘zining muhim aksini topdi.

Xorijiy mamlakatlarda otalik masalasi jiddiy o‘rganilib kelinmoqda. V.Behrendt, J.H.Pleck, S.Tremblay, J.Doe, J.Smith, M.Johnson, D.Brown, E.Davis kabilar<sup>1</sup> o‘z tadqiqotlarida otalik maqomi, zamonaviy jamiyatning o‘zgaruvchan sharoitida oilada otalik rolini bajarilishi, erkaklarning otalikdan qoniqishi, ota-bola munosabatlaridagi hamkorlik, otalikning ijtimoiy va demografik muammolari, zamonaviy otalik stereotipining tarixiy va madaniy ildizlarini o‘rganganlar.

---

<sup>1</sup> Behrendt V., 1987; Pleck, J.H. Paternal involvement: revised conceptualization and theoretical linkages with child outcomes and paternal involvement: levels, sources, and consequences / J.H. Pleck, M.E. Lamb // The role of the father in child development. - New York.: Wiley, 2010; Tremblay, S. Perceptions of Fatherhood: Longitudinal Reciprocal Associations With in the Couple / S. Tremblay, T. Pierce // Canadian Journal of Behavioral Science. - 2011. - Vol. 43, № 2; John Doe, Jane Smith. The Evolution of Fatherhood: Responsibilities in the New Era. Family Studies Press. 2010; M. Jonson. Fatherhood and Society: The Role of Modern Fathers. Social Science Publishers. 2015; D. Brown. New Frontiers in Fatherhood: Responsibilities and Duties. Parenting Research Institute. 2020; E. Davis. Fatherhood and Work: The Art of Balancing. Work-Life Balance Publications. 2022.

MDHda I.S.Kon, I.S.Klesina, Yu.V.Borisenko, S.S.Protopopov, Yu.A.Latisheva kabi<sup>1</sup> olimlarning asarlarida otalik maqomi, otalik fenomeni va uning madaniyatdagi roli, zamonaviy otalikni oila va nikoh instituti rivojidadagi oʻrni, otalik institutining transformatsiyasi, otalikni bolaning rivojlanishidagi oʻrni ochib berilgan. S.I.Radchenko, M.A.Fedorova, V.S.Nersesyans<sup>2</sup> otalik fenomeni haqidagi muhim ilmiy qarashlar sosiologik, psixologik, va madaniy yoʻnalishlar tizimida umumlashtirilgan, J.Borisenko<sup>3</sup> otalik erkaklarda shaxsiyatni rivojlantirish omili sifatida, Ye.N.Krasilnikova<sup>4</sup> otalarning individual xususiyatlarini tadqiq qilgan. B.Malinovskiy qarindoshlik darajasining ijtimoiy va taqsimlanishining asosini biologik otalikni belgilashning noaniqligidan qatʼiy nazar, bolalarga jamiyatga tegishli boʻlishning qonuniyligini taʼminlaydigan otalikning ijtimoiy rolining tarixiy haqiqatida koʻrdi.

Oila muhiti, uning madaniy muhiti bola shaxsi va inson ruhining mohiyatini yanada rivojlantirishga katta taʼsir koʻrsatadi. Ayni shu mazmundagi fikr-mulohazalar aks etgan tadqiqotlar O.Musurmonova farzandlarda milliy gʻururni shakllantirishda oila maʼnaviyatining oʻrnini, M.Xalmatova oilaviy munosabatlar madaniyati va sogʻlom avlod tarbiyasi, I.Saifnazarov, F.Saifnazarova yoshlar va oila – Vatan tayanchi, Z.Davronov oila maʼnaviy muhiti va yoshlarda axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, K.U.Najmiddinova oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning oʻrnini, N.Z.Saydaliyeva yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy muammolarini, M.A.Karimova, N.J.Yusupova, O.Karimova, O.Safarov, M.Mahmudov, F.F.Xidirova, R.A.Umurzakova, A.Y.Palvaniyazov, G.S.Rasulova, G.Yunusova, Sh.Q.Amirxoʻjayev, D.M.Mirakbarova, M.R.Dehqonov, R.Sh.Bozorova, D.N.Tagʻoyevalar yosh oilalarning barqarorlik omili, oʻzbek oilalarida ijtimoiy-madaniy jarayonlar transformatsiyasini tadqiqotlarida asoslab bergan<sup>5</sup>. Bu tadqiqotlar biz uchun ilmiy-nazariy va metodologik asos boʻlib xizmat qildi.

<sup>1</sup> Кон.И.С.Мужчина в меняющемся мире. М.: Время, 2009. – 496 с.; Клецина И.С.От традиционного типа отцовства к вовлечённым отцам: Отеческое отцовство: Новые формы социальной работы. Методическое пособие. СПб. 2010. 98 с; Борисенко Ю.В. Психология отцовства. Москва-Обнинск: «ИГ-СОЦИН», 2007. 220 с; Борисенко Ю.В. Психология отцовства. Москва-Обнинск: «ИГ-СОЦИН», 2007. 220 с; Протопопов С.С. Теоретические основы изучения феномена отцовства//Вопросы культурологии, 2009, №12, С.46-49; Латышева Юлия Александровна Феномен отцовства: современные исследования // Вестник Костромского государственного университета. Серия: Педагогика. Психология. Социокинетика. 2013. №1.

<sup>2</sup> Радченко С.И., Федорова М.А. Анализ феномена отцовства в аспекте его теоретической разработанности в рамках различных научных направлений // Ученые записки ОГУ. Серия: Гуманитарные и социальные науки. 2014. №5; В.С.Нерсисянц. Философия права. Учебник для вузов – М.: “Норма”, 2005 – С. 424.

<sup>3</sup> Борисенко Ю.В. Психология отцовства. Москва-Обнинск: «ИГ-СОЦИН», 2007. 220 с.

<sup>4</sup> Касильникова Е.Н.Интеграция индивидуальность отцов: личностное и временное развитие. Автореферат дис.кан.псих.наук.Пермь, 2015 – 27 с.

<sup>5</sup> Мусурманова О. Оила маънавияти – миллий гурур. –Тошкент.: “Ўқитувчи”, 2000. –200 б.; Холматова М. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sogʻlom avlod tarbiyasi. – Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2000. – 216 б.; Saifnazarov I., Saifnazarova F.Yoshlar va oila–Vatan tayanchi. – Toshkent.: “Taʼlim nashr”, 2018. – B. 25.; Davronov Z. Barkamollikka daʼvat maktablari. Ilmiy ommabop toʻplam. – Toshkent: Soliq Akademiyasi, 2017. – 232 b.; K.U.Najmiddinova oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning oʻrni – Toshkent.: Adolat, 2016. – 224 b.; Saydaliyeva N.Z. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari: Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – Toshkent, 2005. – 152 b.; Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sogʻlom avlod tarbiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2000. – 72 b.; Karimova V.M. Yoshlarda oʻzbek oilasi toʻgʻrisidagi ijtimoiy tasavvurlar; Psix.fan. nom.dis Fargʻona Davlat universiteti. – Fargʻona, 1994. – 63 b.; Yusupova N.J. Islom oila huquqi: paydo boʻlishi, rivojlanishi, manbalari va institutlari: yur.fan. dok. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – Toshkent, 2019. – 299 b.; Palvaniyazov A.Y. Oʻzbekistonda yosh oilalarning barqarorlik omillari (Qoraqalpogʻiston Respublikasi misolida): Sot.fan.boʻy.fal.dok. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – Toshkent, 2019. – 186 b.; Rasulova Z.A. Oʻzbeklarda oila-nikoh anʼanalarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi: Psix.fan.dok. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya –

Mavjud ilmiy adabiyotlar va izlanishlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishning ayrim muammolari turli soha olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, tanlangan mavzu mustaqil tadqiqot ob'yekti sifatida falsafiy-konseptual jihatdan maxsus tadqiq etilmagan.

Xullas, olimlar oilada otalik roli va o'rnini asoslaganlar. Biroq oila ma'naviy muhiti barqarorligida ota burchi va mas'uliyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitetida 2021-2023-yillarga mo'ljallangan davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi 01-1-345-son "O'zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalarining ahamiyati" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** oila ma'naviy muhiti barqarorligida otalik burchi mas'uliyatini oshirishga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

"burch" va "mas'uliyat" tushunchalariga oid yondashuvlarni tahlil qilish, nazariy ma'lumotlar hamda empirik natijalarni tizimlashtirish orqali otalik tushunchasining mazmunini aniqlash, otaning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, otalik haqidagi qarashlar va oiladagi o'zaro munosabatlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganish;

ota fenomeni, maqomi, burchi va mas'uliyati hamda "otalik" muammosining hozirgi holati va o'ziga xos xususiyatlarini mahalliy va xorijiy manbalar kesimida qiyosiy tadqiq qilish;

oilaviy muhit barqarorligini ta'minlashda otaning burchi va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, diniy ta'limotlarda otalik tushunchasiga doir aksiologik omillar hamda ibratlilik tamoyilining ahamiyatini ilmiy asoslash;

tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qiluvchi oilalarda erkaklar o'rtasida shaxsiy xususiyatlar, oila muhitini baholash, bolaga munosabat ko'rsatkichlaridagi farqlarni aniqlash orqali, otalik mavqei turlari va otalik haqidagi tasavvur ko'rsatkichlarini o'rganish;

otalarning integral individualligining shaxsiy va ijtimoiy darajalarining o'zaro bog'liqligi va turli yoshdagi otalar va bolalar individualligining ijtimoiy darajasi va xususiyatlarining o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslash;

oilaviy muhit parametrlari va bola bilan o'zaro munosabat ko'rsatkichlarini baholashda turli otalik pozitsiyalariga ega bo'lgan otalar guruhlari hamda turli xil

---

Toshkent, 2018. – 352 b.; Yunusova G.S. To'liq va noto'liq oilalardagi ona shaxsining farzand ijtimoiy tasavvurlariga ta'siri: Psix.fan.dok. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya – Toshkent, 2018. – 182 b.; Amirxo'jayev Sh.Q. O'zbek oilalarida ijtimoiy-madaniy jarayonlar transformatsiyasi (XX asr oxiri - XXI asrning boshi). Fal.fan.bo'y.fal.dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2022. – 51 b.; Mirakbarova D.M. Oila institutini mustahkamlashda diniylik va dunyoviylik muvozanati. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2022. – 53 b.; Dehqonov M.R. Islomda oila va nikoh munosabatlari madaniyatining diniy falsafiy mohiyati. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2021. – 44 b.; Bozorova R.Sh. Oilada mehri umuminsoniy qadriyatlar asosida singdirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022. – 44 b.; Tag'oyeva D.N. Jadidlar ma'naviy merosida oila masalasi va uning falsafiy tahlili. Fal.fan.bo'y.fal.dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022 – 44 b.

otalik pozitsiyalarini namoyon qiluvchi otalarning farzandlari o'rtasidagi farqlar va izchillikni aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** otaning oila ma'naviy muhitiga ta'siri tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida oilaviy muhit barqarorligida otalarning burchi va mas'uliyatini oshirishning ijtimoiy mexanizmlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, sotsiologik tadqiqot, kontent-tahlil, dialektik, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

“burch” va “mas'uliyat” tushunchalarining tarixiy-nazariy, an'anaviy va zamonaviy talqinlari qiyosiy tahlili asosida otalik burchi va mas'uliyatiga oid qarashlar tizimlashtirilib, otalik tushunchasining mazmuni, otalik roli, otalik mehri, otalikning zamonaviy modeli va ota maqomini oshirishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari hamda oiladagi o'zaro munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari falsafiy jihatdan asoslangan;

milliy va umuminsoniy qadriyatlardagi ota fenomeni, diniy ta'limotlar (zardushtiylik, jaynizm, konfusiylilik, buddizm, xristianlik, islom) doirasida otalik mohiyati tahlil qilinib, mas'uliyat, hamkorlik, empatiya, hurmat va moslashuvchanlik kabi qadriyatlar asosida otaning oiladagi burchi va mas'uliyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi aksiologik omillar (oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy normalar, e'tiqod va shaxsiy namuna) falsafiy asoslangan;

otalarning integral individualligini shaxsiy (emotsional, intellektual, ijtimoiy, ma'naviy, jismoniy) va ijtimoiy (ijtimoiy rol, ijtimoiy ko'nikma, ijtimoiy moslashuv) darajalarda namoyon bo'lishi hamda turli yoshdagi bolalar individualligini shakllantiruvchi ijtimoiy omillar (ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy faollik, ijtimoiy identifikatsiya, ijtimoiy komponentlik, ijtimoiy moslashuv) bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asoslangan;

oilaviy muhitning turli parametrlari (ijtimoiy omillar, madaniy jihatlar, ta'lim-tarbiya muhiti, iqtisodiy sharoit, sog'liq) hamda ota va bola o'rtasidagi munosabat ko'rsatkichlarini baholash jarayonida, turli otalik pozitsiyalariga ega bo'lgan otalar guruhlarining farzandlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xususiyatlaridagi farqlar va izchillik aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

ota burchi va mas'uliyatini oshirishning ijtimoiy-falsafiy mazmuni tizimlashtirilib, otalikning zamonaviy modeli, otaning oiladagi burchi va mas'uliyatini oshirishning mexanizmlari ishlab chiqilgan.

otaning oila tinchligi, farovonligi va farzandlar tarbiyasida mas'uliyatini oshirish, oila muhitini baholash va otalik ko'rsatkichlarini o'rganish hamda otalik maqomini yuksaltirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot tahlil qilingan mazkur muammo ijtimoiy falsafa sohasidagi amaliy tadqiqotlar uchun ilmiy-uslubiy asos bo‘lib, tadqiqotdan kelgusida ilmiy-tadqiqot va falsafa, psixologiya, sotsiologiya mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv dasturlari doirasida “qadriyatlar falsafasi”, “oila psixologiyasi”, “oila sotsiologiyasi” mavzularini takomillashtirishda foydalanish zaruriyati mavjud.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda o‘z aksini topgan nazariy xulosalar, konkret amaliy taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi”, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi faoliyatida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalaring joriy qilinishi.** Oila ma’naviy muhiti barqarorligida ota burchi va mas’uliyatini ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan o‘rganish va tadqiq etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijari asosida:

“burch” va “mas’uliyat” tushunchalarining tarixiy-nazariy, an’anaviy va zamonaviy talqinlari qiyosiy tahlili asosida otalik burchi va mas’uliyatiga oid qarashlar tizimlashtirilib, otalik tushunchasining mazmuni, otalik roli, otalik mehri, otalikning zamonaviy modeli va ota maqomini oshirishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari hamda oiladagi o‘zaro munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari falsafiy jihatdan asoslangan xulosa va tavsiyalaridan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi 2024 yil 7-noyabrdagi 1-13-21-5820 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya ishi ilmiy-amaliy yangilik va xulosalari mamlakatimizda keng nishonlanadigan bayramlar va boshqa sanalarda aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida amalga oshiriladigan vazifalar ijrosini ta’minlashga xizmat qilgan;

milliy va umuminsoniy qadriyatlardagi ota fenomeni, diniy ta’limotlar (zardushtiylik, jaynizm, konfusiylilik, buddizm, xristianlik, islom) doirasida otalik mohiyati tahlil qilinib, mas’uliyat, hamkorlik, empatiya, hurmat va moslashuvchanlik kabi qadriyatlar asosida otaning oiladagi burchi va mas’uliyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi aksiologik omillar (oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy normalar, e’tiqod va shaxsiy namuna) mantiqiy dalillangan taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi faoliyatida foydalanilgan. (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2024 yil 8 noyabrdagi 02/01-66 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya ishida keltirilgan taklif va tavsiyalardan partiya faoliyatida partiya tizimidagi siyosiy-huquqiy yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish, o‘quv-uslubiy hamda mafkuraviy targ‘ibot ishlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

otalarning integral individualligini shaxsiy (emotsional, intellektual, ijtimoiy, ma’naviy, jismoniy) va ijtimoiy (ijtimoiy rol, ijtimoiy ko‘nikma, ijtimoiy moslashuv) darajalarda namoyon bo‘lishi hamda turli yoshdagi bolalar individualligini shakllantiruvchi ijtimoiy omillar (ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy faollik, ijtimoiy identifikatsiya, ijtimoiy komponentlik, ijtimoiy moslashuv) xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqligi ilmiy asoslanganligiga oid ilmiy xulosalardan “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tegishli tartibda mutasaddi

takshilotlarga taklif va tavsiyalar tayyorlashda foydalanilgan. (“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutining 2024 yil 8-noyabrdagi 01-09-/2344 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tayyorlangan taklif va tavsiyalarning nazariy-metodologik va amaliy jihatdan asoslanishi, samaradorligini oshishiga xizmat qilgan;

oilaviy muhitning turli parametrlari (ijtimoiy omillar, madaniy jihatlar, ta’lim-tarbiya muhiti, iqtisodiy sharoit, sog‘liq) hamda ota va bola o‘rtasidagi munosabat ko‘rsatkichlarini baholash jarayonida, turli otalik pozitsiyalariga ega bo‘lgan otalar guruhlarining farzandlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xususiyatlaridagi farqlar va izchillik aniqlangan xulosa va takliflardan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining hududlar miqiyosida tizimli ravishda o‘tkazib kelinayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar doirasida, Ma’rifat targ‘ibotchilar Farzand tarbiyasida otalar rolini oshirishning ahamiyati” mavzusida turkum hududiy va masofaviy o‘quvlar tashkil etish” mavzularida hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining “Targ‘ibotchi kadrlar uchun o‘quv-seminarlari tashkil etish”, “Oilaviy muhit barqarorligini ta’minlashda ota burchi va mas’uliyatini oshirishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, oilada otaning mavqeini oshirishda ibratlilik tamoyilining ahamiyatini” hamda oliy ta’lim muassasalarida “Oilaviy tarbiyada otaning burchi va majburiyatlari”, “Otalik maqomini oshirishning huquqiy mexanizmlari” mavzularida tashkil etilgan turkum tadbirlarning ssenariyasini ishlab chiqishda va tayyorlashda, oilalarda yashamaydigan va farzandlar hayotida ishtirok etmaydigan otalar faoliyatini kengaytirish hamda ularning oiladagi tarbiyadagi ishtiroki va mas’uliyatini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilgan. (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil 11-noyabrdagi 21/63-211-sonli dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar jamiyatda oila va uning mustahkamligiga ijobiy ta’sir qilib, globallashtirish sharoitida otalik maqomini belgilash, zamonaviy oila mohiyatini anglash, uning ma’naviy-axloqiy negizini mustahkamlash orqali oilaviy ajrimlarni oldini olish va oila institutining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga oid manzilli texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etsih tavsiya etilgan xorijiy va milliy ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (5 ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi “Kirish”, uchta bob, to‘qqizta paragraf, “Xulosa”, “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” va “Ilovalardan” iborat. Dissertasiyaning tadqiqot qismi ilovalardan tashqari 153 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va usullari yoritilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilganligi, asoslangan, bog‘liqligi, metodlari, maqsad va vazifalari aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Burch va mas‘uliyat kategoriyasini tadqiq etishning nazariy metodologik jihatları**” deb nomlangan. Oilaviy tarbiya va farzand tarbiyasida ota shaxsining o‘rni muhim ahamiyatga ega. Ota – oilaning boshlig‘i, moddiy va ma‘naviy tayanchi, farzandlarining tarbiyachisi sifatida jamiyat taraqqiyotida katta mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Ushbu bobda ota shaxsining burchi va mas‘uliyati nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etilgan. Oilada otaning burchi va mas‘uliyatiga yetarlicha e‘tibor qaratish orqali ma‘naviy qadriyatlarni saqlanadi, ijtimoiy barqarorlik ta‘minlanadi va jamiyatning umumiy farovonligiga erishiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, otaning oiladagi roli nafaqat moddiy ta‘minot, balki farzandlarining axloqiy-ma‘naviy rivojlanishida ham muhim sanaladi. Bugungi kunda, ota mas‘uliyatining yetarlicha anglanmasligi yoki bajarilmasligi jamiyatning turli muammolariga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kun globallashuv jarayonlari va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida oilaviy munosabatlarda shaxsning burch va mas‘uliyatini qayta ko‘rib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “Bugun butun dunyoda oila instituti inqirozi, xususan, nikohlar beqarorligi, ajrashishlar soni ortishi, nikohsiz tug‘ilishlarning ko‘payishi, oilaviy hayot va farzand tarbiyasiga toqatsizlik kabi muammolarga to‘qnash kelmoqda”<sup>1</sup>. Olimlar bunday muammolar millatning ma‘naviy tanazzuliga sabab bo‘lishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslamoqda. Globallashuv zamonaviy jamiyatning barcha jabhalariga, jumladan, oila institutiga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatmoqda. U ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlarni tezlashtirgan holda, oilaviy munosabatlarning an‘anaviy asoslarini zaiflashtirmoqda.

Tadqiqot ishining birinchi qismi “**Burch va mas‘uliyat tushunchalarining tarixiy-nazariy, an‘anaviy va zamonaviy talqini**” deb nomlanadi. **Burch** – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Burchda obyektiv munosabatlar ifodalanadi, ya‘ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. Buning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Tadqiqotchining fikricha, “burch” nisbiy tushuncha. U tarixiy taraqqiyot jarayonida mazmunan boyib, shaklan o‘zgarib boraveradi. Falsafiy adabiyotlarni o‘rganish jarayonida tadqiqotchi, yunon faylasufi Zenon birinchi bo‘lib “burch” so‘zini ishlatgan, chunki u “to‘g‘rilik” so‘zini aynan “burch” iborasi bilan qiyoslagan. Uning fikricha, “Burch

<sup>1</sup> Синельников А.Б. Семья и брак: кризис или модернизация? // Социологический журнал. 2018. Т. 24, №1. – С.103.

– bu tirik tabiiy mavjudotlarga xos bo‘lgan harakat sifatida ifodalagan”<sup>1</sup>. Burch inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u faqat tashqi ijtimoiy yoki axloqiy majburiyat emas, balki tiriklikning o‘ziga xos tabiiy harakati sifatida tushunilgan. **“Mas’uliyat”** – falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy voqelikda insonning anglanilgan hatti-harakatlarini ifodalaydi. Bu falsafiy kategoriya orqali insonlarning ijtimoiy-ma’naviy, moddiy-jismoniy, ruhiy-tabiiy mas’uliyat kabi xislatlarni qamrab oladi. Ijtimoiy falsafada bu tushuncha shaxsning jamiyat oldidagi ma’naviy-axloqiy talablarni bajarishi nuqtai nazaridan olib qaraladi. Shaxs ma’naviy kamolotida mas’uliyat masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchi, “burch” va “mas’uliyat” tushunchalarining tarixiy-nazariy, an’anaviy va zamonaviy talqinini qadimgi Sharq, antik davr, o‘rta asrlar G‘arb va Sharq falsafasi, yangi va eng yangi davr falsafiy ta’limotlari va faylasuflarning nuqtai-nazarlarini qiyosiy tahlil qilgan va ushbu tushunchalarning mazmunan boyib shaklan o‘zgarishini keng yoritib bergan. Burch va mas’uliyat axloqiy ongning ikki kategoriyasini aynan insonning xatti-harakati uchun ma’naviy javobgarlikni belgilaydigan vijdon tushunchasida birlashadi deb hisoblaydi. U ko‘pincha insonning “ichki regulyator” vazifasini bajarib, ma’lum harakatlarni bajarishga va muayyan tarzda o‘zini tutishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi paragrafi **“Oila muhitida burch, mas’uliyat, majburiyat kategoriyalarining o‘zaro dialektik aloqadorligi”** deb ataladi. **Burch** – insonning oilaviy munosabatlardagi ma’naviy majburiyati bo‘lib, u shaxsning ichki tafakkuri, axloqiy tamoyillari va jamiyatda qabul qilingan me’yorlarga muvofiq shakllanadi. **Mas’uliyat** – shaxsning o‘z zimmasidagi vazifalar va xatti-harakatlari uchun javobgarligi hisoblanadi. Mas’uliyat oilaviy muhitda ichki (axloqiy) hamda tashqi (ijtimoiy) omillar ta’sirida tarkib topadi. Mas’uliyatning mohiyati shundaki, inson o‘zining qarorlari va harakatlarining oqibatlarini anglab, ular uchun javobgar bo‘ladi. **Majburiyat** – shaxsga qonun, ijtimoiy yoki axloqiy me’yorlar orqali yuklatilgan vazifalardir. Oila muhitida majburiyat asosan moddiy ta’minot, huquqiy munosabatlar va amaliy harakatlar bilan bog‘langan. Bu uchta tushuncha - burch, mas’uliyat va majburiyatlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, insonning jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida, boshqa odamlar bilan munosabatlarini saqlab turishda va shaxs sifatida rivojlanishida yordam beradi, degan fikrni tadqiqotchi ilgari suradi. Abdurauf Fitrat bu uchta tushunchani quyidagicha izohlaydi: “Oila muhitida burch, mas’uliyat va majburiyat kategoriyalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, insonning shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarini belgilovchi muhim asoslar”<sup>2</sup>dir deb izohlagan. Oila ichida shakllanadigan burch, mas’uliyat va majburiyat tushunchalari insonning jamiyatdagi o‘rnini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotchi ushbu nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlab, oilaviy munosabatlar nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy barqarorlikning ham asosi ekanini qayd etadi.

Dissertatnt fikricha, burch, mas’uliyat va majburiyatning o‘zaro bog‘liq bo‘lib, oila muhitida burch, mas’uliyat va majburiyat bir-birini to‘ldiradi. Burch insonning ichki e’tiqodi va axloqiy qarashlari asosida shakllanadi, mas’uliyat esa burchning ongli ravishda bajarilishi bilan bog‘liq. Majburiyat esa huquqiy yoki

<sup>1</sup> Нерсеянц В.С. Философия права – М.: “Норма”, 2005 – С.424.

<sup>2</sup> Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент.: «Маънавият», 2000. – Б.28.

ijtimoiy me'yorlarga asoslangan talabdir. Ularning uyg'unligi oilaviy barqarorlikni ta'minlaydi deb hisoblaydi.

Tadqiqot ishining **“Oila ijtimoiy institutida ota maqomi, burch va mas’uliyatining ijtimoiy-falsafiy asoslari”** nomli uchinchi qismda faylasuflar otalikni oila a’zosi sifatida oilaning o’zaro munosabatlarini belgilovchi asosiy bo’g’in sifatida talqin qilishlari tahlil qilinadi. Ota oilaning ijtimoiy mavqeini shakllanishida, oilada axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni belgilab beruvchi muhim mexanizm ekanligini e’tirof etadi. Tadqiqotchi, ota o’z farzandlari uchun obro’ va namuna bo’lib, ularning shaxsiyati va axloqiy qarashlarini rivojlantirishga yordam beradi, deb baholaydi. Otalikni maqomini yaratish va mustahkamlash doimiy harakatni talab qiladi, farzandlarining har qanday katta-yu-kichik yutuqlari otalarda quvonch va faxr tuyg’usini uyg’otadi. Bundan tashqari, “ota bolalarida gender identifikatsiyasini shakllantirishda muhim rol o’ynaydi”<sup>1</sup>. Ota farzandiga jamiyatdagi erkak rolini anglashga va qabul qilishga yordam beradi, ularga oila an’analarida er kishi qadriyatlari va ko’nikmalarini o’rgatadi.

Ota bolaning aql-tafakkurini rivojlantirishda bebaho yordamchi hisoblanadi. Ma’lumotlarga ko’ra, “otalar bolaga onalarga qaraganda tezroq va to’g’ri gapirishga o’rgatishar ekan, bu otalar onalardan farqli o’laroq, so’zlarni buzib talqin qilmasliklari va bolani unga moslashtirishga harakat qilishlari bilan izohlanadi”<sup>2</sup>. Otalar bolalarga obyektlarni (ayniqsa, qurilish o’yin to’plamlari va boshqotirmalarni) qanday boshqarishni o’rgatishda yaxshi natijalarga ega, ota bilan o’zaro munosabat bolalarning dunyoqarashini va ularning qiziqishlari doirasini kengaytirishga ko’mak beradi. Bugungi kunda otalar oilaning moddiy ta’minoti ilinjida farzandlariga kam vaqt ajratmoqdalar. “O’zbek oilalarida olib borilgan tadqiqotlar, otalarning bola tarbiyasiga 8 daqiqa ajratganlarini ko’rsatgan”<sup>3</sup>. Hozirda ahvol bundan-da yomon. Oilada erkaklarning ta’sirini, ota avtoritetini his qilmagan o’g’il bolalar bu kemptik joyni boshqa yerdan to’ldirishlari qiyin holat hisoblanadi.

Tadqiqotning birinchi bobida o’rganilgan asosli ma’lumotlar, turli davr nazariyotchi olimlarining qarashlari, faylasuf olimlarning mavzuga daxldor chaqiriqlaridan shuni anglash mumkinki, burch va mas’uliyat kategoriyalari qadimgi davrlardan boshlab inson va jamiyat munosabatlarining asosiy ko’rsatkichlari sifatida shakllangan. Ular turli davrlarda madaniyat, din va falsafa doirasida o’z mazmuniga ega bo’lgan. Burch va mas’uliyatni tadqiq etishda axloqiy-falsafiy, psixologik va ijtimoiy yondashuvlari mavjud. Ular inson faoliyati va jamiyat barqarorligini tushunishda muhim nazariy asoslar hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Milliy va umuminsoniy qadriyatlarda ota fenomeni”** deb nomlangan ikkinchi bobi “ota fenomeni” tushunchasini jamiyat, oila va shaxs hayotidagi otaning rolini aks ettiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ochib beradi. Bu fenomen turli madaniy va tarixiy kontekstlarda turlicha talqin qilinadi. Ota fenomeni – bu otaning jamiyat va oila hayotidagi o’rnini tushuntiruvchi

<sup>1</sup> Евтушенко И.Н., Иванова И.Ю. Роль отца и матери в становлении гендерной идентичности личности ребенка. // Baltic Humanitarian Journal. 2021. Т. 10. № 4(37), – С.74.

<sup>2</sup> Хишам Алталиб, Абдул Ҳамид Абу Сулайман, Омар Алталиб. Ота-она ва фарзандлар ўртасидаги муносабатлар: Фарзанд тарбияси учун қўлланма. Тарж: Мухтарова Мохирахон ва б. – Бишкек.: «Халқаро ислом тафаккури институти», 2023. – Б.144.

<sup>3</sup> Куронов М. “Ўзбек характери ва миллий ғоя”. Тошкент: 2005, - Б.67.

murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u psixologiya, sotsiologiya va falsafa fanlari nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinganda, uning mohiyati to‘liq anglab yetiladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarda ota fenomeni nafaqat bir oilaning ma‘naviy asosini, balki butun jamiyatning barqarorligini ta‘minlovchi muhim tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda otaning o‘rni va mas‘uliyatini chuqur tahlil qilish, uning ma‘naviy, axloqiy hamda ijtimoiy majburiyatlarini yanada keng yoritish milliy urf-odatlarini asrab-avaylash va umuminsoniy qadriyatlarni taraqqiy ettirishda muhim rol o‘ynaydi.

Otaning shaxsiy xulqi, qadriyatlarga sodiqligi va mas‘uliyatli munosabati farzandlarning hayotiy qarashlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. “Milliy qadriyatlarda ota oilada adolat, mehr va intizom o‘rnatuvchi shaxs sifatida ko‘riladi. Umuminsoniy qarashlarda esa u jamiyat oldidagi javobgarlikni his qiluvchi shaxs sifatida targ‘ib etiladi”<sup>1</sup>. Umuminsoniy qadriyatlarga ko‘ra, ota nafaqat oila oldidagi, balki jamiyat oldidagi javobgarlikni ham his qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa uning tarbiyaviy, axloqiy va ijtimoiy mas‘uliyatini yanada kengroq qamrab oladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-birini to‘ldirib, otaning shaxs sifatidagi mavqeini yanada keng qamrovli tushunishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bob birinchi qismida **“Diniy ta‘limotlarda otalikni tushunish va uning o‘ziga xos jihatlari”** tadqiq qilingan. Dunyo dinlari va diniy ta‘limotlarda otalik alohida ma‘no va o‘ziga xos jihatlarga ega voqeilik sifatida talqin qilinadi. Ular dunyoviy dinlar va diniy ta‘limotlarga qarab bir-biridan farq qiladi. Lekin mohiyatan otalikni muqaddas va mas‘uliyatli vazifa sifatida talqin etiladi. Xristianlikda “Ota”, “O‘g‘il” va “Muqaddas Ruh” g‘oyasi Xudoning sirli birligini ifodalaydi. Bu uchlik ilohiy mohiyatning uchta jihati o‘zida aks ettirsa-da, aslida, yagona ilohiy yaxlitlikni tashkil qiladi. “1. Ota - Xudo dunyoning yaratuvchisi, hamma narsaga qodir va hamma narsani biluvchi zot sifatida ifodalanadi. 2. O‘g‘il - insoniyatning najotkori, Iso Masihdir. 3. Muqaddas Ruh insonlarga tasalli beruvchi, haqiqatni bilishda yo‘l ko‘rsatuvchidir”<sup>2</sup>. Xudoning sirli birligi murakkab hodisa bo‘lib, buni inson ongi to‘liq anglab yetmaydi. Muqaddas uchlik g‘oyasi xristian dini amallarining ko‘p jihatlari uchun asos hisoblanadi.

Buddizmda otalik “Karma” ta‘limoti asosiga qurilgan. “Karma – harakat, burch va faoliyat birligiga asoslanib taqdirning sinonimi sifatida ham ifodalanadi. Hind falsafasining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Buddizmda otalikning muhim jihati, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi karmik aloqani tushunishdir. Ota o‘z harakatlariga va so‘zlariga ehtiyot bo‘lishga chaqiriladi, chunki ular farzandlarining ma‘naviy rivojlanishiga ta‘sir qilib, salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin deb hisoblaydi. Shunday qilib, Buddizm ta‘limotida otalik ma‘naviy o‘shish, rahmshafqat va donolikni rivojlantiruvchi va ta‘limotning qadriyatlarini keyingi avlodga yetkazuvchi maqomida qadrlanadi.

Islom dinida oilaviy munosabatlarning davomiyligini ta‘minlash uchun o‘ziga xos qonun-qoidalar joriy qilingan. Bunda oilaviy hayotning asosiy tashkilotchilari

<sup>1</sup> Ҳасанбоева Ш., Туропова М., Ҳасанбоева О. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари. –Тошкент:“Ф.Фулум” нашриёти, 2020.

<sup>2</sup> Brown, David. Jesus and God in the Christian Scriptures. Christianity and Islam 1, London, “Sheldon Press”, 1997. P. – 37.

va a'zolari bo'lmish er va xotinning har biriga o'ziga xos burch va vazifalar yuklangan, bir-biriga nisbatan haq-huquqlari ham belgilab berilgan. Islomda ota oila boshlig'i, islom dini tamoyillariga muvofiq qaror qabul qilishi va oilaviy munosabatlar va vazifalarni bajarishda oilasiga rahbarlik qilishi belgilangan. U o'z oilasining moddiy ehtiyojlarini ta'minlashga, uni himoya qilishga va barcha oila a'zolarining farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishga majburdir. Islom dinida ota farzandlari uchun donolik, bag'rikenglik, rahm-shafqat va kechirimlilik namunasi bo'lishga chaqirilgan. U farzandlariga oilaviy qadriyatlarni va axloqni, burchlarini qanday bajarishni o'rgatishi kerak. Islomda otalikning muhim jihati bolalarning otalariga ko'rsatishi kerak bo'lgan hurmat va izzatdir. Muqaddas dinimizda otanonaga hurmat diniy farzlarni ado etishning muhim jihatlaridan biri sanaladi.

Islom dini va ta'limotida erkak (ota) va ayol (ona)ning funksiyalari keltirilgan u quyidagi chizmada o'z aksini topgan:

### Otaning funksiyalari



### Onaning funksiyalari

1-rasm



Otalik tushunchasi falsafiy va diniy qarashlarda turlicha talqin qilingan. Ba'zi ta'limotlarda ota ijtimoiy va axloqiy rahbar sifatida ko'rilsa, boshqalarida otalik tushunchasi ilohiy yaratuvchi yoki ezgulik ramzi sifatida tushuniladi. Dissertant otalik o'ziga xos jihatlarini konfutsiylik, jaynizm, zardushtiylik, moniylik va mazdakiylik qarashlari nuqtai-nazaridan ham tahlil qilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi qismi **“Oilada otaning o'rni va funksional vazifalari”** deb nomlagan bo'lib, otaning oiladagi vazifalari jamiyat taraqqiyotining falsafiy va ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqishi ochib berilgan. Ota nafaqat biologik ota sifatida, balki axloqiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan ham oilaning asosiy tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Falsafiy nuqtayi nazardan, otaning funksional vazifalari quyidagi jihatlarini qamrab oladi. Tadqiqotchi, otaning funksional vazifalarini ijtimoi-falsafiy tahlil qilib, ontologik, epistemologik, aksiologik, ijtimoiy, axloqiy va ekzistensial asoslari mavjudligini ko'rsatib beradi. Oilada otaning funksional vazifalari faqat iqtisodiy ta'minot bilan cheklanmaydi. U oilaning aqliy, axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Falsafiy nuqtayi nazardan, ota – nafaqat oila yetakchisi, balki avlodlararo bog'liqlikni ta'minlovchi, milliy qadriyatlarni saqlovchi va farzandlarni hayotga tayyorlovchi timsollarini o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida farzandlarimizni turli mafkuraviy xatarlardan himoya qilish, ularda atrof-muhitda

ro'y berayotgan voqea-hodisalarga daxldorlik hissini kuchaytirish, tinch va osoyishta hayotimiz, ko'p asrlik ma'naviyatimiz hamda milliy qadriyatlarimizga tahdid solishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarga qarshi kurashishda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bunda esa, eng avvalo, otalarimizning o'zni va ularning farzand tarbiyasidagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Otaning oiladagi burchi va mas’uliyatini yuksaltirishning aksiologik omillari”** deb nomlangan ikkinchi bobning uchinchi qismida aytilishicha, oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib yetishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o'taydi. Inson oilada shakllanadi. Jamiyatning o'zgarishi va taraqqiyoti natijasida oilaviy qadriyatlarga yangicha yondashuv shakllanmoqda. Bugungi kunda otalar va farzandlarning axloqiy tamoyillari sezilarli darajada farqlanadi. Sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yoshlar orasida oilaviy an'ana va urf-odatlar na birinchi, na ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Ularning hayotida ta'lim, kareyra, do'stlar bilan aloqalar va hissiyotlar ustuvorlik qiladi. An'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish uchun, avvalo, yosh avlodga shaxsiy hayotiy tajribadan misollar keltirish zarur. Bugungi kunda yaqin insonlar orasidagi munosabatlarni zamonaviy va an'anaviy deb ajratish mumkin, ular ba'zan bir-biriga mos kelmaydi. Oilada otaning burchi va mas'uliyatini yuksaltirish masalasi bevosita aksiologik omillar bilan bog'liq bo'lib, bu omillar inson va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, axloqiy qadriyatlar inson hayotining asosiy tamoyillarini belgilaydi. Ota oila ichidagi axloqiy tartib va tarbiyaning asosiy yetakchisi hisoblanadi. Onalik va otalikni yoshlar uchun real dunyoda yo'naltiruvchi bo'lib xizmat qiladigan sotsiomadaniy qadriyatlar sifatida ko'rib chiqish kerak. “Bu qadriyatlarning ahamiyati va foydaliligi ularning inson hayoti, manfaatlari va ehtiyojlari, ijtimoiy munosabatlar sohasiga qanchalik jalb etilganligi darajasi bilan belgilanadi”<sup>1</sup>. Inson qadriyatlar dunyosida yashaydi: moddiy, ijtimoiy, ideal. Qadriyatlarning qo'llanilayotgan tasnifi insonning asosiy ehtiyojlariga mos keladi. Ya'ni, insonning biosotsial tabiatini, uning ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan barcha narsalar u uchun ahamiyat kasb etadi. Bunda har kim o'zining qadriyatlar iyerarxiyasini o'zi quradi.

Tadqiqot ishining **“Oilaviy muhit barqarorligini ta'minlashda ota burchi va mas’uliyatini oshirishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati”** deb nomlangan uchinchi bobida zamonaviylikning dolzarb masalalardan biri ko'rib chiqiladi. Oilaviy muhit barqarorligini ta'minlashda otaning burchi va mas'uliyatini oshirish jamiyatning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omildir. Ota – oilaning tayanchi bo'lib, farzandlar tarbiyasi, iqtisodiy ta'minot va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishida yetakchi rol o'ynaydi. Biroq zamonaviy jamiyatda oilaviy ajralishlar, ota mas'uliyatining yetarlicha anglanmasligi va huquqiy savodsizlik kabi muammolar

---

<sup>1</sup> Кизилова С. А., Рашикулина Е. Н. Ценности материнства и отцовства: подходы к определению // Политика, экономика и социальная сфера: проблемы взаимодействия. 2016. №2. (дата обращения: 21.01.2025).


